

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JUMANIYOZOVA NURIYA AXMEDOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA YURIDIK DISKURSNING
PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K: 811.111’42:34

811.512.133’42:34

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jumaniyozova Nuriya Axmedovna

Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari.....3

Жуманиёзова Нурия Ахмедовна

Прагмалингвистические особенности юридического дискурса на английском и узбекском языках.....30

Jumaniyozova Nuriya Akhmedovna

Pragmalinguistic Features of Legal Discourse in the English and Uzbek languages.....64

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works68

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JUMANIYOZOVA NURIYA AXMEDOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA YURIDIK DISKURSNING
PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2101 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Paluanova Xalifa Daribayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar: Ko'chimov Shuhrat Norqizilovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning «25» iyul 2023 yil soat 9.30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «10» iyul kuni tarqatildi.
(2023 yil «10» iyul dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.X. Bakiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til birliklarini har tomonlama o‘rganish, ularning shakllanishi, ma’no va mazmunini konseptual tahlil qilish va lisoniy voqelanishi masalalariga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, lisonni inson omili va munosabatlari hamda nutqiy vaziyat bilan bog‘liq ravishda tadqiq etish tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik tahlilning paydo bo‘lishi va pragmalingvistik yondashuvning rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunda ushbu yondashuv doirasida nutqiy faoliyat va uning muvaffaqiyatli kechishi, nutqiy etiket yoki nutqning ijtimoiy xoslanishi, baho munosabatini ifodalovchi so‘z va vositalar, kommunikativ maqsad va uning nutqda voqelanishi, deysis, diskurs, nutqiy aktlar nazariyasi, nutqning kontekst bilan aloqador aspekti va boshqa shu kabi qator masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar salmoqli o‘rin egalladi.

Dunyoda pragmatika va diskurs nazariyasi kontekstga oid bo‘lganligi sababli o‘zaro bog‘liq tadqiqot sohalarida sifatida qaraladi. Mazkur fanlar asosan matn va uning vazifalarini tadqiq etish, muloqot jarayonida qo‘llaniluvchi so‘zlar mazmunining muhimligi hamda interlokutorlarning nutqda o‘zlari ishlatayotgan so‘zdan ko‘ra ko‘proq axborotni yetkaza olishi kabi umumiy jihatlarni birlashtiradi. Ko‘rinadiki, pragmalingvistika og‘zaki yoki yozma diskursning mazmuni qay tarzda kontekstga bog‘liqligi va so‘zlovchilarning universal qiziqishlari hamda maqsadlari qanday qilib shu diskursni shakllantirishini o‘rganuvchi fan demakdir.

O‘zbekistonda muayyan diskursni fanlararo lingvistik va ekstralingvistik jihatlari bo‘yicha tahlil etish ommalashgan bo‘lib, institutsional diskurs turlaridan biri bo‘lgan yuridik diskurs ham sekin-asta ko‘plab tadqiqot ishlarining obyektiga aylanib bormoqda. Bu esa tilshunoslikning eng yangi sohalaridan biri sifatida qaraluvchi yurilingvistika fanining yanada chuqurroq o‘rganilishiga olib keladi. “Mamlakatda o‘quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg‘or va xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish, shuningdek, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni nazarda tutadigan yuridik ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirish”¹ ga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqayotgan bugungi kunning talabi turli tizimli tillarni o‘qitishda talabalarga chet tilidagi yuridik diskursning struktur, nominativ, kognitiv va pragmalingvistik aspektlarini o‘rgatishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 29.04.2020 yildagi PF-5987-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son.

28-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 662-son qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari bilan rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Diskurs nazariyasi muammosi bugungi kungacha jahon tilshunosligida Z.Harris, M.Stabbs, T. van Deyk, N.Feyerklo, G.Brown & G.Yule, Y.S.Kubryakova, N.D.Arutyunova, A.M.Kaplunenko, M.L.Makarov, V.I.Karasik² va boshqalar ishlarida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, J.Ostin, J.Serl, G.Leech, S.Levinson, Z.Vendler, E.Keenan, L.Karttunen, P.Stroson, Ch.Filmor, J.Lakoff, R.Stolneyker, F.Kifer, G.Pochepsov, E.V.Paducheva, V.Demyankov³ va boshqalar pragmatolingvistik hodisalar hisoblanuvchi presuppozitsiya, nutqiy aktlar nazariyasi va ularning tasniflanishi, illokutiv nutqiy aktlar va bilvosita nutqiy aktlarning tadqiq etilishiga ulkan hissa

²Harris Z. Discourse analysis // Language. –1952. – №1; Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. – Chicago, IL: The University of Chicago Press, 1983; Дейк, Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация [Текст]: сборник работ / Т.А. ван Дейк; составление В. В. Петрова; пер. с англ. яз. под ред. В.И. Герасимова; вступ. ст. Ю.Н. Караулова, В. В. Петрова. – Москва: Прогресс, 1989; Fairclough N. Discourse and Social Change. –Cambridge: Polity Press, 1992; Brown G., & Yule G. Discourse Analysis. –Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике / Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты: Сб. обзоров / РАН ИНИОН (Серия: Теория и история языкознания). – М., 2000; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990; Каплуненко А.М. Курс дискурса: под флагом Фуко//Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. – 2013. –№4; Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003; Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

³Austin J.L. How to do things with words. – Oxford: Oxford Univer. Press, 1962; 2nd ed., 1973; Searle J.R. Expression and Meaning. Studies in the Theory of Speech Acts. – USA: Cambridge University Press, 1979; Leech G. Principles of Pragmatics. –London; New York, 1983; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Вендлер З. Иллокутивное самоубийство. Новое в зарубежной лингвистике / сост. Н.Д.Арутюнова и Е.В.Падучева. – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика; Keenan E.L. Two kinds of presupposition in natural language. In Fillmore C., & Langendoen D. (eds), Studies in linguistic semantics. – New York: Holt, Rinehart & Winston, 1971; Karttunen, L. Presuppositional phenomena. Mimeo. Department of Linguistics, University of Texas, Austin. In Levinson, S.C. (ed.), Pragmatics (pp. 181-184). – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Strawson P.F. Introduction to logical theory. –L., 1952; Fillmore Ch. Types of lexical information. In: F. Kiefer (ed.)//Studies in syntax and semantics. – Dordrecht-Holland, 1969; Lakoff G. Linguistics and natural logic//Studies in generative/ semantics. – 1970. – №1; Stalnaker R.S. Pragmatics. – Dordrecht-Holland: D. Reidel Publishing Company, 1972; Kiefer F. Zur Rolle der Pragmatic un der linguistischen Beschreibung. — / “Die Neueren Sprachen”. Heft 3/4, Juli 1978, Verlag Moritz Diesterweg. Frankfurt am Main; Почепцов Г.Г. Основы прагматического описания предложения. – Киев, 1986; Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике. Семиотика и информатика. – М., – 1977. – Вып.8; Демянков В. Прагматические основы интерпретации высказывания. Известие АН СССР. Серия лит. и яз., 1981. – №4; Микаелян М.Е. Концепт CRIME в современной англоязычной картине мира: структурно-репрезентационный и когнитивно-дискурсивный подходы: на материале современного английского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010; Данилов К.В. Репрезентация концептов CRIME и PUNISHMENT в британской и американской юридической терминологии. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Саратов, 2004.

qo‘shishgan. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotida Sh.Safarov, M. Mahmudov, A.Nurmonov, Z.Burxonov, U.Rahimov, M. Hakimov, D.Lutfullayeva, M.Haynazarova va M.Qurbonovalarning⁴ izlanishlarini alohida qayd etish lozim.

Yuridik diskurs va uning pragmalingsvistik xususiyatlari esa asosan rus tilshunosligida V.A.Malseva, L.Y.Popova, V.V.Zayseva, M.N.Fedulova, A.V.Balamakova, M.F.Rezunenko, I.V.Palashchinskaya, E.SH.Nikiforova, G.V.Kusov, Y.V.Shevchenko, S.N.Slepuxin, M.E.Mikayelyan va K.V.Danilov⁵ tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Biroq tilshunosligimizda mazkur diskurs nutqiy aktlar nazariyasi va boshqa pragmalingsvistik hodisalar bo‘yicha tahlilga tortilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy -tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy -tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar» ilmiy loyihasining «Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

⁴Safarov Sh. Pragmalingsvistika//Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008; Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. –№6; Nurmonov A. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – № 6; Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Avtoref. filol. fan. nom. ...diss. – Samarqand, 1994; Hakimov M. Tagma‘no va tagbilim xususida ba‘zi mulohazalar//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – № 1; Burhonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt). Avtoref. filol. fan. nom. ...diss. –Toshkent, 2008; Lutfullayeva D. O‘rniga ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi//O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1996. – №5; Haynazarova M. So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi. Avtoref. filol. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 1999; Qurbonova M. O‘zbek bolalari nutqining pragmalingsvistik aspekti. –Toshkent, 2018.

⁵Мальцева В.А. Стратегии речевого воздействия в профессиональной коммуникации: на примере юридического дискурса. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Челябинск, 2011; Попова Л.Е. Юридический дискурс как объект интерпретаций: Семантический и прагматический аспект. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Краснодар, 2005; Зайцева В.В. Когнитивные, коммуникативно-прагматические и языковые особенности вопроса в юридическом дискурсе. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Тамбов, 2011; Федулова М.Н. Прагма-семантические аспекты концептуализации лексических единиц в юридическом дискурсе: на материале английского и русского языков. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 2010; Баламакова А.В. Коммуникативно-прагматическая интерпретация интонации вопросительного высказывания в устном юридическом дискурсе: на материале американского варианта английского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Иваново, 2010; Резуненко М.Ф. Стратегии и тактики речевого поведения судей, государственных обвинителей и адвокатов в судебно-процессуальном дискурсе. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ставрополь, 2007; Палашевская И.В. Судебный дискурс: функции, структура, нарративность. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Волгоград, 2012; Никифорова Э.Ш. Стратегии коммуникативного воздействия в аргументативно-суггестивных текстах: на примере текстов судебного дискурса английского, русского и казахского языков. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Тюмень, 2013; Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Волгоград, 2004; Шевченко Е.В. Коммуникативные особенности английских и русских юридических речевых актов, речевых стратегий и тактик: на материале языка художественных и публицистических произведений. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Краснодар, 2003; Слепухин С.Н. Индоевропейские механизмы стереотипизации в юридическом дискурсе: на примере категорий ьперсонаь, ьрес мобилис / рес иммобились. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Чебоксары, 2014; Микаелян М.Е. Концепт CRIME в современной англоязычной картине мира: структурно-репрезентационный и когнитивно-дискурсивный подходы: на материале современного английского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010; Данилов К.В. Репрезентация концептов CRIME и PUNISHMENT в британской и американской юридической терминологии. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Саратов, 2004.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingsvistik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali presuppozitsiya, yuridik nutq aktlari va ularning kommunikativ jarayonda qo‘llanilishidagi o‘xshash va farqli (izomorf va allomorf) jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillari nominativ maydonida yuridik diskursning nominativ birliklarini konseptual-kognitiv yondashuv asosida aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning lingvistik (struktur va pragmasemantik) xususiyatlarini chog‘ishtirma tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida lokutsiya, illokutsiya hamda perlokutsiya hodisalarini o‘rganish va perlokutiv ta’sir ko‘rinishlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida illokutiv nutqiy aktlar va ularni tasnifiy guruhlarga ajratish tamoyillarini o‘rganish va qiyosiy tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskurs tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning lingvistik hamda yuridik nutq aktlarining pragmalingsvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, diskursiv, kognitiv-konseptual, struktural, pragmatik, chog‘ishtirma va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida “*jinoyat*” freym strukturasi konseptual-kognitiv tahlili asosida yuridik diskursning nominativ birliklari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning struktur va pragmasemantik tabiatining ochib berilishi asosida sodda yoyiq uyushiq bo‘lakli gaplar, shaxssiz gaplar va so‘z-gaplar, to‘liq va to‘liqsiz bo‘lgan ikki sostavli gaplar, undalma va kirish bo‘laklar bilan murakkablashgan gaplar hamda morfologik sath birliklari presuppozitsiyasi faolligi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida ishontirish (ko‘ndirish), adashtirish, chalg‘itish va majburlash kabi ta’sir ko‘rinishlari illokutiv aktning natijasi sifatida namoyon bo‘lishi kommunikativ-pragmatik tahlil asosida dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillarida illokutiv yuridik nutq aktlari chog‘ishtirma aspektida o‘rganilgan va reprezentativ (xabar) hamda direktiv (undash) lar yuridik diskursda yetakchi illokutiv aktlar ekanligi statistik tahlil metodi orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek yuridik diskursining kelib chiqish tarixi va manbalari (etimologiyasi) hamda rivojlanish bosqichlarining prospektiv qiyoslab o‘rganilishi, yuridik nutqiy aktlar, ularning tur va bosqichlari, nutq aktlarini ma’lum bir guruhga kiritishdagi tamoyillar, illokutiv maqsad, adresatga nutqiy ta’sir ko‘rsatish jarayonida qo‘llaniluvchi turli xil taktikalar hamda ingliz va o‘zbek yuridik diskursi nominatsiya freym tahlilining aniqlanishi tilshunoslikning leksikografiya, terminologiya, diskurs nazariyasi, pragmalingsvistika va kognitiv tilshunoslik kabi bo‘limlarini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi isbotlangan;

yuridik diskursning strukturaviy va pragmasemantik tahliliga oid materiallardan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish va davlat tilida ish yuritish bo'yicha metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanishga oid bir qator taklif va tavsiyalar keltirilgan;

yuridik diskurs bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan nashr qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish" metodik qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv va usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, muammoning aniq belgilanganligi, ilmiy ma'lumotlarning ishonchli manbadan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik diskursni tilshunoslikning zamonaviy yondashuvlari doirasida o'rganilishi, yurisingvistika sohasining tadqiqot ko'lamini yanada boyitilishi, yuridik diskursning taraqqiyot bosqichlari va nominativ birliklariga oid ma'lumotlar asosida yuridik lug'atlar tuzilishi, diskurs, diskurs turlari, presuppozitsiya va nutqiy aktlarga doir ma'lumotlar yordamida diskurs nazariyasi hamda pragmalingvistika sohasini chog'ishtirma tadqiq qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari umumiy tilshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, pragmalingvistika, yurisingvistika (sud lingvistikasi), diskurs nazariyasiga bag'ishlangan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda, darslik va qo'llanmalar yaratishda, kurs ishlari, maqola va tezislar tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Ingliz va o'zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillari nominativ maydonida yuridik diskursning nominativ birliklarini konseptual-kognitiv yondashuv asosida aniqlash va "JINOYAT" freym strukturasi ishlab chiqish, shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida illokutiv yuridik nutq aktlari chog'ishtirma aspektda o'rganilishi va reprezentativ (xabar) hamda direktiv (undash) lar yuridik diskursda yetakchi illokutiv aktlar ekanligiga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan IL-5221091396 raqamli 2022-yildagi "Yuridik terminlar elektron tezaurusi va innovatsion multimedia platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 31-martdagi 81-02-176-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillari yuridik diskursida nominativ birliklarning konseptual-kognitiv yondashuv asosida aniqlanishi loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning struktur va pragmasemantik aspektida sodda yoyiq uyushiq bo‘lakli gaplar, shaxssiz gaplar va so‘z-gaplar, to‘liq va to‘liqsiz bo‘lgan ikki sostavli gaplar, undalma va kirish bo‘laklar bilan murakkablashgan gaplar hamda morfologik sath birliklari presuppozitsiyasi faolligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida 2021-2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida, shuningdek, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari uchun “Chet tillari” fan dasturini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 2023-yil 10-maydagi 10/769-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot xulosalari asosida chiqarilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida ishontirish (ko‘ndirish), adashtirish, chalg‘itish va majburlash kabi ta’sir ko‘rinishlari illokutiv aktning natijasi sifatida kommunikativ-pragmatik tahlil asosida namoyon bo‘lishi kabi tadqiqot ishining ilmiy yangiliklaridan O‘zbekiston Yoshlari Umumjahon assotsiatsiyasining eng yirik huquqiy loyihalaridan biri “Xavfsiz migratsiya” xayriya loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Yoshlari Umumjahon assotsiatsiyasining 2023-yil 22-maydagi 01-son ma’lumotnomasi). Natijada yaratilgan tarqatma materiallarning mazmundorligi oshirilib, mahalliy va xorijiy auditoriyani keng jalb qilishga hissa qo‘shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot ishlarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 8 ta ilmiy maqola, 6 ta xalqaro maqola chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, boblar xulosalar, ishning umumiy xulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda yuridik diskursning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida diskurs, diskurs &matn, diskurs tipologiyasi va institutsional diskurs zamonaviy tilshunoslikning dolzarb

masalalari sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, yuridik diskurs “Yurislingvistika”, chet el amaliyotida esa “Forensic Linguistics” deb ataluvchi yangi lingvistik sohalarining obyektligi va dunyo tilshunosligida bugungi kungacha asosan sotsiolingvistik, pragmalingvistik va kognitiv yondashuvlar doirasida tadqiq etilganligi, o‘ziga xos qator maqsad va vazifalar hamda davriy taraqqiyot bosqichlariga ega ekanligi ingliz va o‘zbek tillari misolida o‘rganilgan. Tilshunoslarning bu boradagi nazariy fikrlari umumlashtirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan lisoniy birliklar bilan bir qatorda nolisoniy (pragmatik, ruhiy, ijtimoiy-madaniy) omillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tilshunoslikda “diskurs” atamasining kengroq tadqiq etilishiga olib keldi va diskurs lingvistika bilan bir qatorda sotsiologiya, madaniyatshunoslik, pedagogika, pragmalingvistika, psixolingvistika va yurispuridensiya sohalarining ham o‘rganish obyektiga aylandi. Diskurs lingvistik termin sifatida qo‘llanilguniga qadar asosan mantiqiy va epistemologik (falsafaning “*bilim*” haqidagi sohasi) jihatdan sharhlangan va uni birinchi bo‘lib izohlagan tilshunoslardan biri F.Sossyurning izdoshi fransuz lingvisti Emile Benveniste hisoblanadi. U F.Sossyur tomonidan kiritilgan til sistema (langue) sifatida va til nutq sifatida (parole) oppozitsiyalarini ma’qullamaydi va nutq (parole) so‘zining o‘rniga diskurs atamasini kiritib, til va diskurs oppozitsiyalarini qo‘llashni taklif etadi. Uning fikricha, “diskurs gapning yuqori turadigan sathi bo‘lib, har doim voqea-hodisa sifatida namoyon bo‘ladigan va so‘zlovchi nutqi orqali faollashadigan diskret (alohida) harakatdir”⁶ va nihoyat, diskurs lingvistik termin sifatida fanga ilk marotaba 1952-yilda Amerikalik olim Z.Harrisning “Discourse Analysis” maqolasida keltirilgan bo‘lib, tilshunos: “Diskurs – bir vaziyatda bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan vujudga keltiriladigan og‘zaki yoki yozma gaplari yig‘indisi”⁷, –deya e’tirof etgan. Lingvistik atama sifatida esa tilshunoslikning asosiy uchta yo‘nalishi hisoblanuvchi sotsiolingvistika, pragmalingvistika va kognitiv lingvistika doirasida kengroq o‘rganiladi. Xususan, sotsiolingvistik yondashuvda diskursiv muloqotning interaktiv xususiyatlari, ya’ni kommunikativ vaziyatning muhim ijtimoiy parametrlari, kommunikantlar rolining o‘zgarish qonuniyatlari va ularning interaktiv xatti-harakatlari strategiyasi kabi masalalarning o‘rganilishiga e’tibor qaratisa, pragmalingvistik nuqtai nazardan diskursga aloqa o‘rnatish va saqlash, o‘zaro ta’sir o‘tkazish, ta’sir va ma’lumot almashinuvi, o‘zgaruvchan muloqot strategiyalarini o‘zaro bog‘lash va ularni verbal yoki noverbal tarzda qo‘llash kabilarni o‘z ichiga oladigan muloqot ishtirokchilarining interaktiv faoliyati sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika esa diskurs va matnli adresatga jo‘natilgan ma’lumotlarni idrok etish, tahlillash va ifodalash jarayonidagi qayta ishlash uslubiga qarab ko‘rib chiqadi, ya’ni murakkab so‘zlovchi-tinglovchi tizimi turli darajada lingvistik ma’lumotlarni bog‘laydigan va cheklangan sonli mustaqil komponentlardan tashkil topgan axborotni qayta ishlash majmuasi

⁶ Goodrich P. Legal Discourse: Studies in Linguistics, Rhetoric and Legal analysis. –London: The Macmillan Press LTD, 1987. – P. 135.

⁷ Harris Z. Discourse analysis // Language. –1952. – №1. – P.3.

demakdir. Manbalarga ko‘ra, tilshunoslikda, shuningdek, matn va diskurs oppozitsiyasi mavjud bo‘lib, diskurs matnga teng emas, aksincha, matn diskursning bir bo‘lagi, mahsulidir va diskurs matn bilan bir qatorda nolisoniy omillarni ham o‘z ichiga oladi⁸. Umuman, diskurs lingvistik termin sifatida aniq bir xronotopli ekstralingvistik omillar, kontekstdagi matn va muloqot parametrlaridan iborat bo‘lgan nutqiy jarayondir. Tilshunoslikda diskurs tipologiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, so‘zlashuv va institutsional diskurs turlari o‘ziga xos xususiyatlariga (yo‘nalish, nutqiy cheklovlar, kommunikativ rollarning o‘zgarishi, tarkibiy tuzilish darajasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnga bog‘liqlik darajasi va maqsadlarning soniga) ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Chunonchi, so‘zlashuv diskursi ko‘proq kundalik muloqotni o‘zida aks ettirsa, institutsional diskurs bir-birini tanish-tanimasligidan qat’iy nazar muayyan jamiyat me’yorlariga muvofiq muloqotni amalga oshiradigan odamlar o‘rtasidagi munosabatning maxsus ko‘rinishidir va bu munosabat asosan institut vakili (agent) va mijoz o‘rtasida yuzaga keladi. Yuridik diskurs – barcha yuridik tuzilmalar, ular doirasida qo‘llaniladigan ham og‘zaki, ham yozma yuridik matnlar va ularning o‘ziga xos maxsus professional terminlaridan iborat bo‘lgan, shuningdek, og‘zaki yoki yozma yuridik til va yuridik nutqning barcha qoida va me’yorlariga bo‘ysunuvchi institutsional diskurs turidir.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda yuridik diskurs o‘rganilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar”** deb nomlangan faslida yuridik diskursning turli xil lingvistik yondashuvlar doirasida o‘rganilishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Chunonchi, yurilingvistikaning obyekti bo‘lgan yuridik diskurs bugungi kunga qadar asosan kognitiv, sotsiolingvistik va pragmalingvistik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Pragmalingvistik yondashuv esa mazkur diskurs kontekstida foydalaniladigan taktika, strategiya va boshqa lisoniy vositalarni o‘rinli qo‘llash hamda illokutiv maqsad masalalarini tadqiq etadi.

Tadqiqot ishining **“Tilshunoslikda yuridik diskursning taraqqiyot bosqichlari”** deb nomlangan faslida yuridik diskurs va uni tashkil etuvchi yuridik til va terminlarning davriy rivojlanish bosqichlari ingliz va o‘zbek tillari misolida prospektiv qiyoslab o‘rganildi.

Tilshunoslikda yuridik diskursning davriy o‘rganilishi yuridik til va uning tarkibiy qismi bo‘lgan qonun tilining taraqqiyoti bilan bog‘liq sanaladi. Yuridik til ham boshqa professional tillar qatori adabiy tilning bir bo‘lagi sifatida asosan qonunchilik hamda rasmiy doirada qo‘llanilib, o‘ziga xos uslubi, lug‘aviy birliklari va terminologik tizimiga ega. Ingliz yuridik diskursi hozirgi davrga qadar turli qabilalar bosqini va tillar, asosan, qadimgi ingliz, Skandinaviya, lotin va fransuz

⁸Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы//Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 8: Лингвистика текста. – М., 1978. – С. 11; Oukhvanova I & Gurenchik E. “Dictionnaire d’analyse du discours” as an intra-linguistic dictionary and its influence on discourse studies development. Discourse in academic settings. –Regensburg, 2016. – P. 40.; Safarov Sh. Pragmalingvistika//Monografiya. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.136; Каплуненко А.М. Курс дискурса: под флагом Фуко. Вестник Иркутского государственного лингвистического университета №4, 2013. – С. 9-18; Попов А. Ю. Формы экономических текстов и дискурсов. Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. статей. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2001. – С.41-42.

tillari ta'sirida shakllangan. Shunga ko'ra, ingliz yuridik diskursining o'rganilishi *old legal English (milodiy 450-1100)*, *middle legal English (milodiy 1100-1500)* va *modern legal English (1500-hozirgacha)* kabi uchta bosqichga bo'lingan va ular bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, qadimgi va o'rta asrlar yuridik ingliz tilidagi ayrim so'z, ibora va terminlar zamonaviy yuridik ingliz tilida ham saqlanib qolgan. Jumladan, *bequeath (vasiyat)*, *goods (tovar)*, *guilt (ayb)*, *manslaughter (odam o'ldirish)*, *murder (qotillik)*, *oath (qasam)*, *right (huquq)*, *sheriff (sherif)*, *steal (o'g'irlamoq)*, *swear (qasam ichmoq)*, *theft (o'g'rilik)*, *thief (o'g'ri)*, *ward (vasiylik ostidagi shaxs/uchastka)*, *witness (guvoh)* va *writ (noma/yo'zish)* kabi so'zlar va "to have and to hold" (bir umrga birga bo'lmoq), "rest, residue and remainder" (mol-mulking qolgan qismi), "hold harmless" (shartnoma tuzuvchi bir yoki ikkala tomonning yetkazilgan zarar uchun yuridik javobgarlikdan ozod etilishi) alliteratsiyalari qadimgi ingliz tilidan; *conviction (hukm)*, *mediate (vositachilik qilish)*, *legitimate (qonuniy)*, *clerk (kotib)*, *clergy (ruhoni)* va *versus (qarshi)* kabilar lotin tilidan, *gift (ixtiyoriy ravishda o'tkazilgan mulk)*, *loan (qarz/kredit)*, *sale (sotuv)*, *trust (ishonch)* va *law (qonun)* kabilar skandinaviya tilidan kirib kelgan va hozirgi kunda ham ingliz yuridik diskursida faol bo'lgan so'z va iboralar sanaladi. Ingliz huquqshunos-lingvisti Hey: "Ingliz tili har xil davrda turli xil huquqiy hujjatlar uchun ishlatilgan. Masalan, vasiyatnomalar 1400-yil atrofida ingliz tilida tuzila boshlagan bo'lsa, nizomlar 1300-yilgacha lotin tilida, 1489-yilgacha fransuz, bir necha yillar davomida ham ingliz ham fransuz tillarida va faqat 1485-yildan boshlab faqat ingliz tilida yozilgan"⁹, – deb ta'kidlagan. Bundan ma'lumki, o'rta asrlarda ingliz huquqshunoslari asosan uchta tildan faol foydalanganlar va bu yangi hodisa dublet juftliklarning paydo bo'lishiga olib keldi: *breaking and entering (buzish va kirish)* –ingliz/fransuz, *fit and proper (mos va to'g'ri)* –ingliz/fransuz, *lands and tenements (yer va mulk)* –ingliz/fransuz, *will and testament (vasiyat)* –ingliz/lotin, *act and deed (harakat)* –fransuz yoki lotin/ingliz. Zamonaviy og'zaki yuridik til ham har qanday tirik til kabi takomillasha boradi, ya'ni yangi o'zlashma so'zlarning qo'llanilishi joyga ko'ra turli xil dialektlarni shakllantiradi. Bu esa Britaniya hamda Amerika yuridik diskursida ayrim tafovutlarni yuzaga keltiradi. Masalan, AQSH qonunchiligida Angliya qonunchiligidagidek "solicitor" hamda "barrister" kabi yuridik kasb turlari ishlatilmaydi va uning o'rniga oddiygina "attorney" yoki "lawyer" qo'llaniladi. Ba'zida atamalarning ma'nolarida ham o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Britanacha yuridik ingliz tiliga ko'ra "judgement" so'zi "ishning natijasi, qaror" yoki "qaror sabablarining bayonoti" ma'nolariga ega, ammo Amerika yuridik ingliz tilida faqat birinchi ma'nosi bilan cheklangan.

O'zbek yuridik diskursi va yuridik tilining o'rganilishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va ushbu davriy taraqqiyot mobaynida o'zbek yuridik tili qadimgi turkiy til, arab, rus va boshqa tillar ta'sirida shakllandi. Shu bois bugungi kunda ham qonun hujjatlari, loyihalari va huquqshunoslar nutqida o'zlashma so'z va terminlar faol qo'llaniladi. Kuzatishlar natijasida o'zbek yuridik diskursining rivojlanishi

⁹ Haigh R. The Origins of Legal English, <http://forum-legal.blogspot.com/2011/01/origins-of-legal-english.html> (access 27.4.2018), 2011.

qadimgi davr (m.a. II ming yillikning o'rtalari-milodiy I ming-yillik o'rtalari), o'rta asrlar (V-XIX asrning II yarmi), yangi davr (XIX asrning II yarmi-XX asr boshlari) va eng yangi davr yuridik tili (XX boshi-XXI asr) kabi bosqichlarga ajratildi. Tarixiy huquqiy terminlarni chuqur o'rgangan o'zbek tilshunosi O.Tursunova qadimgi yozma obidalar tilida *ata, qan, yeg, apa, qiz, ag'a, ini, choluq, er, qatun, eke, yig'un, achi, ingun*¹⁰ va boshqa shunga o'xshash oila va nikohga doir qadimgi turkiy so'z-terminlar uchrashini o'z tadqiqotida alohida ta'kidlab o'tgan. Ma'lumki, o'zbek yuridik diskursi va yuridik tilining boyishida arab tilidan o'zlashgan terminlar va islom dinining muqaddas kitobi va shariatning eng asosiy manbai "Qur'oni karim" alohida o'rin tutadi. Bu esa, o'z navbatida, VII asrda tashkil topgan buyuk Arab xalifaligi tomonidan VIII asrda hozirgi O'zbekiston joylashgan yerlarning istilo qilinishi va arab tili, madaniyati va musulmon huquqshunosligining yoyilishi bilan bog'liq. *Qonun, huquq, fuqaro, tajovuz, tasarruf, tuhmat, shariat, voris, meros, mulk, nikoh, jinoyat, jazo*¹¹ kabi arabchadan o'zlashgan terminlar esa hozirgi o'zbek yuridik tilidagi faol qo'llaniluvchi terminlar hisoblanadi. O'zbek yuridik diskursining rivojlanishida Temuriylar davlati va huquq tizimi katta ahamiyatga ega. Binobarin, Temur kodeksi, ya'ni Amir Temurning davlatni boshqarishdagi qonun-qoidalarini to'plami hisoblanuvchi "Temur tuzuklari" XIV asrning ikkinchi yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni, Temur saltanati, davlat tizimi, sud qurilishiga dahldor bo'lgan asosiy ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan tarixiy hujjat sanaladi. Manbada *vaqf (soliq solinmaydigan va begonalashtirilmaydigan mol-mulk, asosan yer), mutavalli (vaqf mulkiga vasiylik qiluvchi), mufti (diniy-huquqiy masalalarni izohlovchi shariat bilimdoni), muhtasib (shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor), fatvo (hukm), tiyul (soliq (to'liq yoki qisman) olish huquqi berilish), sadrlar sadri (vaqf ishlari vaziri), yarg'u (huquq, hukm)*¹² kabi yuridik terminlardan keng foydalanilgan. O'zbek yuridik tili rivojining yangi davri Chor Rossiyasining istilosi va mustamlakachiligi tizimining o'rnatilishi bilan xarakterlanadi. Natijada rus qonunchiligi va rus tili o'zbek yuridik diskursiga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Bu davrda Turkistonda Imperiya qonunchiligi bilan birga Yevropa huquqining bank-kommersiya, veksellik, kredit, tog'-konchilik, xususiy sohibkorlik huquqlari ham keng tarqalgan. Eng yangi davrda esa tilshunos olim Sh.Ko'chimov ta'kidlaganidek, davlat va olimlar e'tibori asosan rus qonunlariga qaratilgan va 1920-30-yillarda yuridik til nihoyatda chuqur o'rganilgan. Natijada yuridik tilga oid ko'plab maqolalar va risolalar chop etilgan va 1960-yilga kelib yuridik tilning o'rganilishi ancha kuchaygan va nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida yuridik diskursning lingvistik xususiyatlari**" deb nomlanadi. Uning "Ingliz va o'zbek tillarida yuridik diskurs nominativ birliklari (freym tahlili misolida)" faslida ingliz

¹⁰ Tursunova O.F. O'zbek davlatchiligi tarixida qo'llanilgan huquqiy terminlarning lisoniy tadqiqi. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2007. – B. 18.

¹¹ G'ulomova G.Y. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2004.

¹² Temur tuzuklari. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.

va o‘zbek yuridik diskursining nominativ birliklari haqida so‘z yuritiladi. So‘z, so‘z birikmasi, frazeologizmlar va gaplar kabi til birliklarini tavsiflashda nominatsiya jarayoni ahamiyatli bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikda tilning nominativ birliklarini aniqlashda obyektlar va olamni ong orqali anglash hamda talqin qilishga asoslangan konseptual-kognitiv yondashuv rivojlangan va ushbu yondashuv doirasida nominatsiya turli xil kognitiv qoliplar yoki modellar yordamida amalga oshiriladi. Shunday modellardan biri bo‘lgan freymlar obyektlarni muayyan kategoriyalarga ajratish, konseptuallashtirish hamda uzoq muddatli xotirada saqlashda keng foydalaniladi. Shunga ko‘ra, ingliz va o‘zbek yuridik diskursi nominativ birliklarini aniqlashda *crime (jinoiat)* freymini shakllantirish zarurati mavjud. Sababi, jinoiat konsepti nafaqat jinoiat huquqi, balki boshqa huquq sohasining ham markaziy tushunchasi sanaladi. Ingliz yuridik diskursi *jinoiat* freymi strukturasi tuzishda ingliz jinoiat huquqiga oid manbalarga asoslanadi¹³ va *names of crime* va *types of crime* kabi 2 ta asosiy subfreymlar ajratib olindi. Shunga ko‘ra, *types of crime* subfreymi *corpus delicti*, ya’ni jinoiat tarkibining muhim elementlari bo‘lgan *mens rea* va *actus reus*, xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga asosan farqlanuvchi *malum in se* va *malum prohibitum* hamda ijtimoiy xavflilik va jazoning og‘irlik darajasiga ko‘ra farq qiluvchi *felonies*, *misdemeanours* va *infractions* kabi subkonseptlardan iborat ekanligi aniqlandi. *Names of crime* subfreymi esa *crimes against persons*, *crimes against property & economic crimes*, *crimes against public order and morality* va *crimes against the state and justice* kabi subkonseptlar hamda ularni to‘ldiruvchi jinoiat nomlarini o‘z ichiga oluvchi slotlardan tashkil topadi. *Corpus delicti*, *element*, *mens rea* va *actus reus* kabilar *jinoiat* freymini shakllantiruvchi asosiy konseptlar sifatida belgilab olindi.

Ishda o‘zbek yuridik diskursi nominativ birliklarini tadqiq etishda asosan O‘zbekiston Respublikasi Jinoiat kodeksiga asoslanildi. O‘zbek yuridik diskursi *jinoiat* freymi strukturasi shakllantirishda *jinoiat tarkibi*, *jinoiat belgilari*, *obyekt*, *obyektiv tomon*, *subyekt* va *subyektiv tomon* kabi asosiy konseptlar, *jinoiat turlari subfreymini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan*, *uncha og‘ir bo‘lmagan*, *og‘ir* va *o‘ta og‘ir jinoiatlar* kabi subkonseptlar, *jinoiat nomlari subfreymidagi shaxsga qarshi jinoiatlar*, *tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoiatlar*, *iqtidosiyot sohasidagi jinoiatlar*, *ekologiya sohasidagi jinoiatlar*, *hokimiyat*, *boshqaruv*, *jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoiatlar*, *jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoiatlar* va *xarbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoiatlar* va ularni to‘ldiruvchi slotlar asos qilib olindi.

Ikkinchi bobning navbatdagi faslida ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursining strukturaviy tabiati o‘rganildi va tahlilni amaga oshirishda 1500 dan

¹³ Wilbur R. Brantley. Criminal Law Workbook. –USA: The College of the Virgin Islands, 1968. –P. 96; Introduction and overview of Criminal law. SAGE Publications, Inc., 2016. –P. 24; Criminal law. Saylor URL: <http://www.saylor.org/books>; Criminal law. Open textbooks for Hong Kong. Original source: Saylor Academy https://saylordotorg.github.io/text_criminal-law/index.html ; Day J & Krois A-Lindner Matt Firth. Introduction to International Legal English. –UK: Cambridge University Press, 2008. – P. 160; Романов А.К. Правовая система Англии. М.: Изд-во «Дело», 2002. – С. 344.

ortiq ingliz va o‘zbek tillaridagi yuridik nutqlardan foydalanildi. Shunga ko‘ra, ikkala diskursda ham sodda gaplarning barcha turlari uchrashi aniqlandi, ammo uyushiq bo‘lakli sodda yoyiq gaplar asosan direktiv va reprezentativ shaklida keluvchi sodda yig‘iq gaplarga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. M.: **Prosecutor:** *March 28 2019 was supposed to be a celebration. Samantha Josephson and friends for gathering together is a celebration of life. They are getting together to relive a few of those kind and fun moments of college..... She’d been stabbed multiple times from the bottom of her feet throughout her torso, throughout her face, her neck and her head.... I am Byron Gibson. I am the solicitor here and along with deputy solicitor Daniel Goldberg, deputy solicitor April Sampson and assistant solicitor Amanda Gaston, we represent the state of South Carolina against the defendant Nathaniel David Rowland now (Nathaniel Rowland’s Trial); **Advokat:** *Sudning hukmi qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi shartligi O‘zR JPK ning 455-modda talabidir. Sohibquron Amir Temur: “Kuch adolatdadir”, deb aytgan edi. Bu hozirgi kunda ham o‘z mohiyati, ma’nosi va mazmunini yo‘qotgan emas. Qonunlarimiz kuchi ham, qudrati ham adolatparvarligidadir. Sud ishda qatnashayotgan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish shart degan tamoyilga tayanib ish ko‘radi (O‘AHN, 20-b)¹⁴.**

Bir sostavli gaplardan esa shaxssiz gaplar, fikrga turli munosabat bildiruvchi semantik-funksional shakllangan gaplar faollikka ega. M.:

Shaxssiz gaplar: **Defense attorney:** *The people interviewed included 450 children and 150 adults. Also, 49 photo lineups were prepared, bank account records were seized and examined (McMartin Preschool Abuse Trial); **Advokat:** *Ushbu holatning o‘zidan ham kim haqiqatni gapirayotganiligini tushunib yetish mumkin (O‘AHN, 89-b).**

Semantik-funksional shakllangan gaplar: **Legal Advisor (magistrate court):** *Good morning, your worships! Your worships, the first case on your list this morning is number two - one Reichenbach limited (<https://www.youtube.com/watch?v=QF46W6LvHY4>); **Sudya:** Rahmat! Marhamat, guvohlar o‘rningizdan turishingizni so‘rayman. Sizlarni so‘roq qilmagunimizga qadar sud majlisi zalida bo‘lishingiz mumkin bo‘lmaganligi uchun hozirda sud zalidan chiqib turasiz keyin chaqirib so‘roq qilaman. Marhamat! (Ch. Normo‘minov ishi).*

Shuningdek, ingliz yuridik diskursida ayrim hollarda imperativ, infinitiv va nominativ gaplar ham uchrasa, o‘zbek yuridik diskursida infinitiv gaplar yuridik nutqda qonun yoki qarorlardan namuna keltirish orqali ifodalanadi. M.: *Now, to talk to the non-inconsistent piece, here, I think the inconsistency is pretty glaring (Parker Drilling Management Services, Ltd. v. Brian Newton); **Chunonchi, JK ning 103-modda 1-qismida:** “Moddiy tomonidan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lmagan shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha’ni va qadru qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o‘zini-o‘zi o‘ldirishiga suiqasd qilish darajasiga yetkazish” bilan bog‘liq jinoiy xatti-harakatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (O‘AHN, 93-b).*

¹⁴ O‘zbekiston advokatlarining himoya nutqlari // Защитительные речи адвокатов Узбекистана. – Toshkent: Adolat, 2006. – B. 378.

Sodda va qo‘shma gaplardan farqli o‘laroq, undalma va kirish bo‘laklar bilan murakkablashgan gaplar mazkur ikkala diskursda qo‘llaniluvchi asosiy strukturalardan biri sanaladi. M.: **Judge:** *You’re excused, ma’am, thank you for coming, thank you. Call your next witness* (Tiffany Moss Trial); **Prosecutor:** *In fact, Mrs. Hillier at the time lived at 11 Stalybridge Road in Mottram and is that where you went?* (Shipman Inquiry); *Hurmatli sud hay’at a’zolari! Dastlabki tergov organlari tomonidan himoyamdagi Isayev Umid O‘zR JK ning 276-modda 1-qism, 273-modda 2-qism va 237-modda 2-qism “b” bandlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan* (O‘AHN, 112-b); **Sudya:** *Demak, sud alohida xonaga sud qarorini chiqarish uchun kirib ketadi* (Ch.Normo‘minov ishi).

Ravishdosh, sifatdosh o‘ramlar va uyushgan bo‘laklar bilan murakkablashgan gaplar o‘zbek yuridik diskursida prokuror, advokat va sudya nutqida faoldir. M.: **Advokat:** *Arizachi va guvohlarning ko‘rsatmalari va jinoiy ish materiallariga to‘g‘ri baho berishingizni, unga jazo tayinlashda zararning ko‘p qismi qoplanganligini, oilasida yagona boquvchi ekanligini, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari borligini hisobga olib unga qonunda nazarda tutilgan jazodan ham yengilroq jazo berishingizni va zararning qolgan qismini undirish bo‘yicha ishning ko‘rilishini fuqarolik sudiga berishingizni so‘rayman* (R.Asamov ishi).

Ushbu nutqda ham ifodalangan ravishdosh o‘ram, uyushgan murakkab vositasiz to‘ldiruvchi (*Arizachi va guvohlarning ko‘rsatmalarini va jinoiy ish materiallariga to‘g‘ri baho berishingizni....*), uyushgan qaratqich aniqlovchi (*Arizachi va guvohlarning*), uyushgan vositali to‘ldiruvchi (*ko‘rsatmalari va jinoiy ish materiallariga*)lar berilgan gapni shakl va mazmun jihatidan murakkablashtirgan. Ingliz yuridik diskursida esa bunday konstruksiyalar o‘rniga qo‘shma gaplar qo‘llanilish holatlari ko‘proq.

Qo‘shma gaplardan bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarning miqdori ingliz va o‘zbek yuridik diskursida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga nisbatan ko‘proq ekanligi aniqlandi.

Ushbu bobning “Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskurs presuppozitsion xususiyatlari” deb nomlangan fasli presuppozitsiya hodisasining ingliz va o‘zbek yuridik diskursidagi tadqiqiga bag‘ishlandi.

Adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat, adresatga ta’sir ko‘rsatish va ko‘zlangan maqsadga samarali erishish uchun til birliklaridan unumli va to‘g‘ri foydalanish kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi pragmatik yoki lingvistik pragmatika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida o‘tgan asrning ikkinchi choragida rivojlandi va tilshunoslarning asosiy e’tibori markaziy pragmatik hodisalar bo‘lgan presuppozitsiya, diskurs nazariyasi, bahoni bildiruvchi so‘z va vositalar hamda nutqiy etiket ko‘rinishlariga qaratildi. O‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab tilshunoslikda semantik tadqiqotlarning pragmatik tahlil asosida murakkablashishi lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati hamda so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar asosida presuppozitsion aspektida tadqiq etilishiga olib keldi. Shu kunga qadar *tagbilim, prezumpsiya, ichki ma’no,*

*pragmatik ma'no, sigmatik ma'no, monema*¹⁵ terminlari bilan nomlanib kelgan presuppozitsiya (lot. *prae-* oldinda, oldin va *suppositio*-taxmin) muhim pragmatik hodisa sifatida gap mazmunini to'g'ri va to'liq ochib berishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda “so'zlovchining umumiy bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi”¹⁶, “so'zlovchi va tinglovchining umumiy bilim elementi yoki muvaffaqiyatli nutqiy muloqotning zaruriy sharti”¹⁷, “adresatdagi nutqni tushunish uchun muhim bo'lgan bilimlar to'plami”¹⁸, “so'zlovchi va kontekstda berilgan gap mutanosibligi o'rtasidagi munosabat”¹⁹ kabi ta'riflar keltirildi. Bugungi kunda esa bu muammoning “propozitsiya (obyektiv mazmun, hukm) ni to'g'ri tushunilishiga xizmat qiluvchi nutq ishtirokchilari orasidagi “bilishning umumiy fondi”, “oldindan bilishning jami” kabi talqini keng qo'llanilmoqda²⁰. Umuman olganda, mazkur termin orqali zohiriy ma'no ostidagi muayyan lisoniy vositalar yordamida namoyon bo'luvchi botiniy, qo'shimcha ma'noni tushunishimiz mumkin va kontekst, nutq vaziyati, nutq egalariga oldindan ma'lum bo'lgan bilimlar hamda ularning til ko'nikmalari bu ma'noning voqelanishidagi asosiy elementlardir. O'zbek tilshunosi N.Mahkamov ham “presuppozitsiya orqali axborot muayyan lingvistik birliklarning ishorasi bilan implisit ifodalansa-da, nutq egalari tomonidan hech qanday qiyinchiliksiz anglashiladi”²¹, – deya ta'kidlaydi. Demak, tilda ma'lum bir presuppozitsion signallar yoki ishora vositalarining mavjudligi ushbu pragmatik hodisaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bunday signallar barcha tillarda mavjud bo'lib, ular asosida presuppozitsiya bir necha turlarga bo'lib o'rganiladi.

Ingliz tilida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan **presupposition triggers** (presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar) Keenan (1971), Karttunen (1983), Levinson (1983), Yule (1996) va boshqalar tomonidan maxsus o'rganilgan²². Binobarin, Karttunen tasnifi bo'yicha 31 ta presuppozitsion signallar aniqlangan bo'lsa, Keenan “ mantiqiy presuppozitsiya” nomi ostida 9 ta vositani ajratib ko'rsatadi. Karttunen ishi asosida Levinson ham o'zining 13 xildagi presuppozitsiyaning tashqi signallarini taklif etadi, ya'ni: *definite descriptions (the*

¹⁵ Hakimov M. Tagma'no va tagbilim xususida ba'zi mulohazalar//O'zbek tili va adabiyoti. – 2001. – № 1. –B.30-34; Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике//Семантика и информатика. – М., 1977. – С. 91-124; Кифер Ф. О. пресуппозициях//Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – С. 367; Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap//O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent. – 1986. – №6. – В. 28-31; Демянков В. Прагматические основы интерпретации высказывания//Известие АН СССР. Серия лит. и яз., 1981. – №4. – С.368-377. http://www.infoplex.ru/IZV4_81.html; Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, – 1986. – №6. – В. 42-45.

¹⁶ Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике//Известие АН СССР. Серия лит. и яз. – 1973. Вып. №1. – С. 85.

¹⁷Падучева Е.В. О'sha manba.

¹⁸ Дейк Т.А. ван. Вопросы прагматики текста//Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистика текста. –М.: Прогресс, 1978. – Вып.8. – С. 299.

¹⁹ Keenan E.L. “Two kinds of presuppositions in natural language”. In Fillmore, C.J. and D.T. Langendoen (eds.) // Studies in Linguistics Semantics. –1971. – P. 45-54.

²⁰ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 14

²¹ Mahkamov N. Lisoniy ortiqchalik va tejamlilik natijasida vujudga kelgan desemantizatsiya// O'zbek tili va adabiyoti. –T., 2002. – №2. –B. 25.

²² Keenan E. L. Two kinds of presupposition in natural language. In Fillmore, C. & Langendoen, D. (eds)//Studies in linguistic semantics. –New York: Holt, Rinehart & Winston, 1971; Karttunen L. Presuppositional phenomena. Mimeo. Department of Linguistics, University of Texas, Austin. In Levinson, S. C. (ed.), Pragmatics (pp. 181-184). –Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

*definite article or a possessive), factive verbs (know, realize, regret...), implicative verbs (manage, forget, avoid...), iteratives (again, anymore, return...), change of state verbs (stop, begin, continue...), verbs of judging (praise, accuse, criticize...), temporal clauses (before, while, since...), cleft sentence (It is/wasn't...that/who...), implicit clefts with stressed constituents, comparisons and contrasts (too, back, in return, comparative constructions...), non-restrictive relative clauses (who, which, when, where...), counterfactual conditionals (if conditions contrary to facts), questions (alternative, rhetorical questions, wh-questions)*²³.

Ishda ingliz yuridik diskursi presuppozitsion tahlili G.Yule tasnifiga binoan amalga oshirildi, ya'ni:

Existential presuppositions in English legal discourse (Ingliz yuridik diskursida ekzistensial presuppozitsiya). Ingliz yuridik diskursida odatda ma'lum bir ism yoki tavsifdan foydalanish orqali ko'rsatilgan yoki tavsiflangan obyektning mavjudligini nazarda tutuvchi referentsial birliklar juda ko'p qo'llaniladi: *Mr.Katyal: Thank you, Mr. Chief Justice, and may it please the Court: McDonough's Section 1983 suit claimed that Smith brought and maintained criminal proceedings against him based on fabricated evidence* (Case 18-485, McDonough versus Smith). Presuppozitsiyaning ekzistensial signallari bilan adresant adresatga juda ko'p axborot yetkazadi. Berilgan misolda "Chief Justice exists", "the Court exists", "McDonough has a Section 1983 suit" va "Smith exists" degan qo'shimcha presuppozitsiyalar anglashiladi.

Factive presuppositions in English legal discourse (Ingliz yuridik diskursida faktiv presuppozitsiya): "know", "be aware", "realize" kabi faktiv fe'llar qo'llanilgan propozitsiya obyektning faktik haqiqat ekanligiga ishora qiladi va o'z-o'zidan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi, chunki bo'lishli, bo'lishsiz yoki so'roq bo'lishidan qat'iy nazar faktiv predikatli gap uni to'ldiruvchi jumlaning haqiqat ekanligiga presuppozitsion munosabat bildiradi. Ingliz yuridik diskursida faktiv presuppozitsiyadan foydalanish ko'rsatkichi boshqa turlarga qaraganda kamroq bo'lib, asosan ishda ko'rilyotgan ikkala tomon advokatlarining kirish nutqi (opening statement) va yakunlovchi nutqi (closing statement) da ko'proq foydalanilishi ma'lum bo'ldi. Bilamizki, advokatlar ishning muvaffaqiyatli bo'lishida ishontirish & tasdiqlash taktikasiga keng murojaat qilishadi va bunday paytlarda faktiv fe'llarni ishlatish nutqning asosli bo'lishida qo'l keladi. M.: *Mr.Porcarelli: And you obviously know that there's a cross claim and we're, we're very serious about pursuing the cross claim* (Exline-Hassler v. Penn National Insurance, et al.). Ushbu nutqiy parchada "there's a cross claim and we're, we're very serious about pursuing the cross claim" presuppozitsiyasi anglashiladi.

Lexical presuppositions in English legal discourse (Ingliz yuridik diskursida leksik presuppozitsiya). Ba'zan tilimizda muayyan leksemaning leksik ma'nosi orqali presuppozitsiya ifodalanilishi mumkin va bunda ushbu leksik ma'no hamda nutq egalarining til haqidagi umumiy bilim fondi presuppozitsiyani tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Ingliz yuridik diskursida *implicative verbs*,

²³ Karttunen L. Presupposition: What went wrong?// Proceedings of SALT 26, 2016. – P. 706.


iteratives va *change of state verbs* leksik presuppozitsiyani hosil qilishda faol sanaladi. M.: **Danny Porter:** *In July, this defendant called the police in the evening of July 26 and reported Emani had run away again* (Tiffany Moss Trial). Presuppozitsiyasi: *Emani had run away before too.*

Structural presuppositions in English legal discourse (Ingliz yuridik diskursida struktural presuppozitsiya). Muayyan soʻz va iboralar bilan bogʻliq boʻlgan presuppozitsiya turlaridan tashqari, maʼlum bir strukturalar yordamida reallashuvchi presuppozitsiyalar ham mavjud va bunday strukturalar odatda soʻzlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqat deb qabul qilinishi yoki taxmin qilinishi uchun foydalaniladi. Ingliz yuridik diskursida struktural presuppozitsiya hodisasi juda koʻp kuzatiladi. Chunki sud jarayonining tergov-surishtiruv qismi (asosan direct-examination) *wh-questions* asosida amalga oshirilsa, advokatlar yoki prokurorlar kirish hamda yakuniy nutqida *rhetorical questions, temporal clauses, comparison & contrasts, cleft sentences* keng oʻrin egallaydi. Bu esa nutqqa yanada emotiv-ekspressivlik baxsh etadi. M.: **Prosecutor:** *And what were you studying at Carolina?* (Nathaniel Rowland Trial) >> *You are studying at Corolina;* **Ms. Zois:** *Okay. And can you describe what your car looked like after the hit and run?* (Exline-Hassler v. Penn National Insurance, et al.) >> *The car had the hit and run;* **Ms. Cakmis:** *It's even harsher than harmless error when you get into the habeas world* (Hamid Mohamed Ahmed Ali Rehaif v. United States, No.17-9560) >> *Harmless error was harsh in the habeas world;* **Miss Jensen:** *That's not where Taylor was murdered.* (Ashley McArthur Trial) >> *Taylor was murdered.*

Counter-factual and non-factive presuppositions in English legal discourse (Ingliz yuridik diskursida kontrafaktual va faktiv boʻlmagan presuppozitsiyalar). Baʼzi hollarda soʻzlovchi muloqot jarayonida oʻzaro taʼsirning nokommunikativ usullariga murojaat qiladi. Shunday usullardan biri kontrafaktual va faktiv boʻlmagan presuppozitsiyalar boʻlib, bunda nutq egalari biror bir jumlaning qoʻllash orqali haqiqat yoki faktga zid boʻlgan axborot uzatadilar. Yuridik diskurs fakt asosiga qurilganligi sababli faktiv boʻlmagan presuppozitsiyalar nihoyatda kam kuzatilsa, kontrafaktual turi birmuncha koʻproq. M.: **Mr. Sumption:** *If Mr. Gompertz had read the whole of the document instead of part of it, he would have appreciated that e-mail was in fact about the letter, which it had been agreed that Mr. Hoon would write to Mr Gavyn Davies, the Chairman of the BBC* (Hutton Inquiry) >> *Mr. Gompertz didn't read the whole of the document.*

Oʻrganilgan materiallar tahliliga koʻra, ingliz yuridik diskursida uchraydigan ushbu turlarni quyidagicha tasvirladik:

Diagramma 1.



U.Rahimov esa tadqiqotida presuppozitsiya leksik birliklarning sinonimik, omonimik, antonimik xususiyatlari asosida belgilanishini qayd etib, lingvistik (morfologik, sintaktik, porosodik) hamda ularga yordamchi vositalar – ekstralingvistik vositalarni alohida ko‘rsatib o‘tadi va quyidagi guruhlarni ajratadi²⁴:

I. Morfologik vositalar: so‘z turkumlari (ot so‘z turkumi va undagi kategoriyalar, sifat, olmosh, ravish, yuklama va kelishiklar).

II. Sintaktik vositalar: so‘roq gaplar, o‘xshatish qurilmali gaplar va so‘z tartibi.

III. Porosodik vositalar.

IV. Ekstralingvistik vositalar: hayotda mavjud bo‘lgan turli vaziyatlar, paralingvistik vositalar va sotsial vositalar.

Olim, shuningdek, bunday presuppozitsion signallar ichida yuklamalar (ham, hatto, faqat, yana, endi, hali, nafaqat, huddi va b.), ko‘makchilar (ko‘ra, boshqa, bilan, qaraganda, asosan, qaramay, qarshi va b.), olmoshlar (ayniqsa ko‘rsatish olmoshlari), ravishlar (ayniqsa payt, tarz ravishlari), kelishiklar, o‘xshatishli qurilmalar, ritorik so‘roq gaplar va ko‘pincha so‘roq olmoshlari bilan tuzilgan so‘roq gaplar aktivligi bilan ajralib turishi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Mazkur tasnifga tayangan holda biz ham gap semantikasi bilan uzviy aloqador bo‘lgan pragmatik hodisa-presuppozitsiya va unga ishora qiluvchi lingvistik vositalar (asosan morfologik va sintaktik) ning o‘zbek yuridik diskursida uchrashini tadqiq etdik.

O‘zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik vositalar. Presuppozitsiyani yuzaga keltirishda mustaqil so‘z turkumlari muhim rol o‘ynaydi. M: (a) *Sudlanuvchi Matibbayev Olimjon Raximbaevich – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2012 yil 5 dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining yigirma yilligi munosabati bilan amnistiya to‘g‘risida”gi Qarorining 2-bandiga asosan jazodan ozod qilingan* (O.Matibbayev ishi); (b) *O‘sha kuni ko‘chada turgan edim. Rahmatli Jamshid keldi. Adashmasam, qo‘riqchilar uni ichkariga qo‘yishmadi* (J.Kenjayevev ishi); (c) **Jabrlanuvchi:** *Boya so‘raganimdek sudlanuvchiga nisbatan qonun doirasida tegishli jazo tayinlashingizni so‘rayman* (B.To‘rayev ishi); (d) **Ekspert:** *Ekspertiza uchun guruh tuzilgan va guruh tomonidan birgalikda xulosaga kelingan. Bitta mening xulosam emas* (Q.Do‘sov ishi); (e) **Davlat ayblovchisi:** *Oldingi sud majlisida himoyachi tomonidan iltimosnoma kiritilgan edi. O‘sha tergov davomida aniqlagan holat bo‘yicha mutaxassislar bilan ko‘rilgan o‘sha dalolatnomani boshqatdan iqtisodiy va buxalteriya ekspertiza tayinlash bo‘yicha o‘zlarining iltimosnomasini kiritganlar* (G.Yo‘ldosheva ishi). Berilgan (a) gapda mazkur fe‘l (ozod qilingan) shakli orqali “hibsda bo‘lgan”, (b) “rahmatli” sifat shakli orqali “Jamshid vafot etgan”, (c) “boya” payt ravishi orqali “Avval ham so‘ralgan”, (d) “bitta” son turkumi orqali “Boshqalarning ham xulosasi”, (e) “o‘sha” ko‘rsatish olmoshi orqali “Avval qandaydir tergov bo‘lgan” va “Avval qandaydir dalolatnoma bo‘lgan” presuppozitsiyalari yuzaga keladi.

²⁴ Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 1994. – B. 28-29.

Gapga qo‘shimcha ma’no jilvasi beruvchi yuklamalar va obyektlar o‘rtasidagi vaqt, makon, sabab, natija va boshqa munosabatlarni ifodalovchi ko‘makchilar o‘zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qilishda aktivlikka ega. M.: **Advokat Murodova:** (a) *Shuningdek, shu moddaning yana bir talabi sudning hukmi faqat sud muhokamasida tekshirilgan dalillar bilan asoslantirilishini nazarda tutadi* (U.Turdimatov); (b) *Bu holatni sudlanuvchidan tashqari sudda guvoh qatorida so‘roq qilingan O.Ziyoyeva ham sudlanuvchi F.Nosirov bilan bir xonada saqlanganliklarini tasdiqlab ko‘rsatuv berdi* (O‘AHN, 76-b). Ko‘rinib turibdiki, (a) gapda *yana* va *faqat* yuklamalari “Moddaning boshqa talablari ham bor” va “Sud hukmi sud muhokamasida tekshirilgan dalillardan boshqa dalillar bilan asoslantirilmaydi” presuppozitsiyalariga, (b) misoldagi chegaralash, ayirish, ajratish, mustasnoqlik grammatik ma’nolarini ifodalab kelgan ... *dan tashqari* ko‘makchili qurilma hamda birgalik, hamkorlik ma’nolariga ega bo‘lgan *bilan* ko‘makchisi “Guvoh O.Ziyoyeva ham tasdiqlab ko‘rsatuv berdi” va “Sudlanuvchi F.Nosirov saqlangan xonada O.Ziyoyeva ham saqlangan” kabi yashirin propozitsiyalarga ishora qilgan.


O‘zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi sintaktik vositalar. Sintaktik vositalardan fikrni ta’sirchan, kuchli va qat’iy ifodalovchi ritorik so‘roq gaplar, achinish, afsuslanish, piching, istak-xohish va boshqa ma’nolarni aks ettiruvchi qoliplarning yashirin propozitsiyani anglashda ahamiyati katta. M.: (1) *Nega Sohib boshqalar hisobiga yashashi kerak? Nega birovning pulini qaytarish yoki to‘lovini kechiktirishni iltimos qilish o‘rniga yana pul talab qilishi, olib kelmasa, o‘lim bilan qo‘rqitishi kerak?* (O‘AHN, 86-b); (2) *Agar bizga bu so‘zlashuv eshittirilganda, ekspertga qiziqtirgan savollarimizni berardik* (O‘AHN, 129-b).

Ko‘rinadiki, (1) *nega* so‘roq olmoshi orqali hosil bo‘lgan ritorik so‘roq gaplarda “*Sohib boshqalar hisobiga yashamasligi kerak yoki yashashi to‘g‘ri emas*” va “*Birovning pulini qaytarish yoki to‘lovini kechiktirishni iltimos qilish o‘rniga yana pul talab qilishi, olib kelmasa, o‘lim bilan qo‘rqitmasligi kerak yoki qo‘rqitishi to‘g‘ri emas*” darak-inkor axborotlari, (2) Agar +A – ganda edi; Agar +A.... – sa; Agar (balki) +A – maganida/ maganida edi... qolipi orqali esa “*Bizga bu so‘zlashuv eshittirilmagan*” propozitsiyasi yashirin ifodalangan.

Shunday qilib, o‘rganilgan materiallar tahliliga ko‘ra aytish mumkinki, o‘zbek yuridik diskursida olmoshlar, yuklama, ko‘makchi va ko‘makchili qurilmalar asosiy presuppozitsiyaga yo‘l ochuvchi vositalar sanaladi. Mazkur diskursda sintaktik vositalar hamda qoliplar presuppozitsion hodisasi (taxminan 10%) kuzatilsa ham, morfologik birliklar (taxminan 50%) singari sermahsul emas (diagramma 2 ga qarang).

Diagramma 2.

O'zbek yuridik diskursida presuppozitsiya hodisasi



■ Morfologik vositalar ■ Sintaktik vositalar

Dissertatsiyaning uchinchi bobini "Ingliz va o'zbek tillarida yuridik nutq aktlari pragmalingsvistik tahlili" deb nomlanadi. Uning birinchi faslida nutqiy akt va yuridik nutq aktlarining umumiy tavsifi yoritiladi.

O'tgan asrning 60-70-yillarida pragmalingsvistikaning tilshunoslikda rivojlanishi muhim lingvistik hodisalardan biri bo'lgan nutqiy aktlar nazariyasining institutsional diskursning qator turlarida tadqiq etilishiga yo'l ochdi. Nutqiy akt umumiy ta'riflarga ko'ra, muloqot jarayonida adresant va adresat o'rtasidagi muayyan kommunikativ maqsad (buyurish, ogohlantirish, iltimos qilish, va'da berish va b.) ga hamda jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan munosabat, shu munosabat natijasida turli xil taktika qo'llash va ma'lum bir ta'sir ko'rsatish orqali bajariladigan nutqiy harakat yoki muloqotning minimal birligidir. Nutqiy aktlar asosan 3 bosqichli, ya'ni lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakat tarzida o'rganiladi. Muayyan shovqin, talaffuz hamda ma'nodan iborat bo'lgan lokutiv aktning sodir etishda hech qanday maqsad ko'zlanmaydi va ushbu akt fonetik, fatik va retik aktlardan tashkil topadi. Ba'zan yuridik diskursda fonetik aktning yuzaga keltirishda talaffuz me'yorining buzilishi pragmatik to'siqqa olib kelishi, bu esa tinglovchiga nutqni anglashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday holat ingliz va o'zbek diskursida asosan guvoh va sudlanuvchi nutqida kuzatiladi. M.:

Prosecutor: *About how long into your friendship or relationship did that start occurring?*

Witness: *mm-hmm, (unclear – six words) like from the beginning.*

Judge: *Play into the microphone! We're having trouble hearing.*

Prosecutor: *He said "pretty much out the gate"* (Ashley McArthur Trial) – ushbu misolda tez va g'ayrioddiy talaffuz qilish ifodaning tushunarsiz bo'lishi, diskurs ishtirokchilari o'rtasida noqulaylik va pragmatik to'siqning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Safo Ismoil (guvoh): *Keyin ikkinchi marta o'tirdik. Bular Akmal bilan o'tirdi. 200\$ dan zakalad berdik (F.Xushvaqtoev ishi)* – epenteza, ya'ni so'z o'rtasida tovush orttirilishini ushbu gapda guvoh nutqidagi "zakalad" so'zi misolida ko'rishimiz mumkin. Aslida "zaklad" bo'lgan leksema tarkibida "a" unlisi orttirilgan.

Ikkala diskursda ham grammatik me'yorlarga binoan qo'llaniluvchi ko'chirma gaplar fatik aktga (**Mr.Dingemans:** *...it says this: "... he devised*

the scientific basis for the enhanced biological warfare defence programme and led strong research groups in many key areas” (Hutton Inquiry); **Advokat: Mirsoliyev, pora olmoqchi bo‘lsangiz nima uchun qochdingiz? – degan savolga u: “Agar qochmasam mashinamga shu pulni tashlab bo‘lsa ham qo‘lga tushirmoqchi edilar”, – degan vajni bildirdi** (O‘AHN, 131-b)) va o‘zlashtirma gaplar esa retik aktga (**Rod Gaston: And he also said that Physician Assistant Longley breached the standard of care** (Brain aneurism misdiagnosis case); **Advokat: Mamatovaning uyiga uning ruxsati bilan kirishganligini, ularning kirishlariga Mamatova qarshilik qilmaganligini, u yerda hech narsani titkilamaganligini, biron narsani olish niyati bo‘lmaganligini bayon qildi** (O‘AHN, 35-b)) misol bo‘la oladi.

J. Serl ta’limotida propozitsional akt ham alohida o‘rin egallagan bo‘lib, xabar yoki tasdiq ifodalovchi bunday aktlar ingliz va o‘zbek yuridik diskursida talaygina. M.: **Laura Zois: Gregory had a headache in December. Not since December. And for every one of these doctors, they’re responsible for knowing what’s been going on with this child for these many days** (A brain aneurism misdiagnosis case); **D.D.Bedilova: Bundan tashqari, M.A.Saliyeva pensiyaga chiqqunga qadar maktabda o‘qituvchi lavozimida ishlab kelgan va barcha oylik ish haqi va pensiyalarini yig‘ib kelgan** (X.U.Ibragimova ishi).

Nutqiy aktlar nazariyasining eng muhim jihatlaridan biri muayyan kommunikativ maqsad ko‘zlangan va bilvosita yoki bevosita qo‘shimcha propozitsiya ifodalovchi illokutiv aktlardir. Har qanday illokutiv maqsad adresatga nisbatan nutqiy ta’sir uslubi yoki imkoniyatini bildiruvchi illokutiv kuch asosida voqelanadi. Ushbu illokutiv kuchni to‘g‘ri anglanishi esa J.Serl tomonidan shakllantirilgan *IFIDs- Illocutionary Force Indicating Devices* (Illokutiv Kuchni Ko‘rsatuvchi Vositalar) va *felicity conditions* (muvaffaqiyat shartlari) ga bog‘liq. Yuridik diskursda ham ushbu tamoyillarga rioya etmaslik nutqni muvaffaqiyatsiz bo‘lishiga olib keladi.

Illokutiv akti sodir etishdan yuzaga keladigan perlokutsiya yuridik diskursda muhim sanaladi. Shuning uchun kuchli nutqiy ta’sir yoki natijaga erishish maqsadida advokat va prokurorlar muloqot jarayonida turli xil taktikalar qo‘llash orqali adashtirish, chalg‘itish yoki fikridan qaytarish va majburlash kabi holatlarni yuzaga keltiradilar.

Mazkur bobning “Ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida illokutiv nutqiy akt turlarining voqelanishi” deb nomlangan faslida illokutiv nutqiy aktlar tasnifi keltirilgan va ularning ingliz va o‘zbek tillari yuridik diskursida qo‘llanilishi statistik tahlilga tortilgan.

Pragmatik tahlilning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan nutqiy aktlar va ularning tipologiyasi haqidagi turli-tumanlik hanuzgacha bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Eng mukammal tasnif sifatida baholanuvchi illokutiv nutqiy aktlar J.Serl tomonidan taklif etilgan bo‘lib, unda olim nutq aktlarini muayyan guruhlariga ajratishdagi 12 ta maxsus mezonlarni ishlab chiqqan. Shunga ko‘ra, reprezentativ yoki assertiv (nutqiy tuzilmaning rostligini tasdiqlovchi aktlar), direktiv (buyruq, iltimos, ogohlantirish, savol kabi undash aktlari), deklarativ (muayyan holatni o‘zgartirishga qaratilgan aktlar), kommissiv (va‘da

berish va boshqa turdagi majburiyat aktlari) va ekspressiv (aktantning psixologik holatini ifodalovchi aktlar) kabi nutqiy akt guruhlari shakllantirilgan.

Yuridik diskursda reprezentativ aktning voqelanishi. Nutqiy aktlar nazariyasining dastlabki guruhi reprezentativ yoki assertiv aktlar bo'lib, ularda asosiy maqsad so'zlovchini talaffuz etilgan propozitsiyaning rost yoki yolg'on ekanligiga ishontirish va xabar mazmunini ifodalashdir. Ingliz va o'zbek yuridik diskursida bunday aktlar asosan *asserting\confirming* (*tasdiq akti*), *reporting/informing* (*xabar akti*), *concluding* (*xulosa akti*), *acknowledging/admitting* (*tan olish akti*), *complaining* (*shikoyat akti*), *guessing* (*tahmin qilish akti*), *blaming* (*ayblash akti*), *explaining* (*tushuntirish akti*), *agreeing* (*rozi bo'lish akti*), *disagreeing* (*rad etish akti*), *correcting* (*to'g'irlash akti*) va *describing* (*tavsif akti*) ko'rinishida namoyon bo'ladi. M.: **Ms. Zois:** *Um, our first witness today will be Steve Hassler, which Plaintiff's husband. I have her supervisor planning on being here as soon as she can, but she said that she thinks it will be 12.00* (Exline Hassler v. Penn National Insurance); **Advokat:** *Shu vaqtda bosqinchilar S.Mamatova bilan birga zalga kirganlarida voyaga yetmagan 1992-yilda tug'ilgan Erpo'latov Sarvarni ko'rib qoladilar* (O'AHN, 23-b).

Yuridik diskursda direktiv (undash) aktning voqelanishi. Direktiv aktlar reprezentativ aktlardan farqli o'laroq, adresatni biror bir harakatni bajarishga undaydi va ularda perlokutiv effekt juda muhim sanaladi. Bunday undash aktlari turli darajada, masalan, taklif yoki maslahat aktlari kamtarona ravishda undashni aks ettirishi, talab yoki buyruq aktlari esa kuchli undash orqali amalga oshirilishi mumkin. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ingliz va o'zbek yuridik diskursida direktivlar eng ko'p qo'llaniluvchi nutqiy aktlar bo'lib, ular asosan *asking* (*so'rash*), *ordering/commanding* (*buyruq berish*), *requesting* (*iltimos qilish*), *advising* (*maslahat berish*), *inviting* (*taklif qilish*), *warning* (*ogohlantirish*), *permitting* (*ruxsat berish*), *challenging* (*undash*) hamda *demanding* (*talab qilish*) shaklida uchraydi. M.: **Requesting (iltimos akti): Prosecutor:** *All right, you put your hand down please. If you could state your name for the court and for the jury, please* (Tiffany Moss Trial); **Advokat:** *Faqat bitta iltimosim bor. Hurmatli raislik etuvchi, guvohlarning qanchalik to'g'ri guvohlik berayotganligi to'g'risida ajrim chiqarishingizni so'rayman* (G.Yo'ldosheva).

Yuridik diskursda kommissiv (majburiyat) aktning voqelanishi. Mazkur nutq aktida samimiylik sharti niyatga qaratilgan bo'lib, asosiy lisoniy parametr borliqning so'zga moslashish (*the direction of fit is world-to-word*) yo'nalishidir. Chunonchi, majburiyat aktlarida so'zlovchi (turli darajada) kelajakdagi muayyan harakatni sodir etishni o'z zimmasiga oladi. Kuzatilayotgan ikkala yuridik diskursda esa bunday nutqiy aktlar nisbatan kamroq bo'lib, asosan *promising* (*va'da*) va *vowing* (*qasamyod*) tarzida namoyon bo'ladi. M.: **Promising (va'da akti): The clerk:** *You do solemnly promise and declare that you shall well and truly keep this jury together in some convenient room*

The bailiff: *I will* (Theodore Ervin v. Cindy Young, et al.);

Sudlanuvchi: *Yana menga bir bor imkon berib, xalqimga sodiq farzand bo'lib xizmat qilishga va'da beraman* (A.Tursunboyev ishi).

Yuridik diskursda ekspressiv aktning voqelanishi. Ekspressiv aktlar soʻzlovchining muayyan voqelikka nisbatan psixologik holati, munosabati va his-tuygʻularini ifodalaydi. Rasmiy uslubning koʻrinishlaridan biri boʻlgan yuridik diskursda ekspressiv aktlarga koʻp murojaat etilmasa-da, uchrashi kuzatilgan. M.: **Apologizing (kechirim soʻrash akti):** *Mr. Stephenson: Sorry... in.... in her Dodge. I do apologize. You're quite correct* (Exline Hassler v. Penn National Insurance); **Sudlanuvchi:** *Bizning zulm qilish niyatimiz boʻlmagan hech kimga. Bizni kechirishingizni soʻrayman* (J. Kenjayev ishi).

Yuridik diskursda deklarativ aktning voqelanishi. Bu turdagi nutq aktlari yordamida nutq egasi maʼlum bir jumlaning talaffuz qilganidan keyin vaziyatga oʻzgartirish kiritishni koʻzlaydi. Shunga koʻra, deklarativ aktlarda adresant va adresantning *sotsial mavqei* katta ahamiyatga ega. M.Hakimov deklarativlar haqida shunday yozadi: “Deklarativ aktning amalga oshirish huquqi faqat maʼlum ijtimoiy mavqea faoliyati bilan shugʻullanayotgan shaxsga beriladi, yaʼni bunday aktlarni sodir etayotgan soʻzlovchi nutqida oʻsha vaziyatdagi holatga hokimlik darajasi sezilib turadi”²⁵. Yuridik diskursda esa deklarativ aktlar asosan kuchli ijtimoiy mavqega ega boʻlgan sudya hamda nikohni eʼlon qiluvchi FHDYo xodimi (yoki ruhoniy) tomonidan sodir etiladi. M.: **Judge:** *Ma'am, I impose the sentence of death. Counts 2 & 3 are vacated by operation of law their felony murder charges counts 4 & 5 the cruelty charges of course merge with respect to count 6 I impose a 20-year sentence to be served in confinement* (Tiffany Moss Trial); **Sudya:** *Yuqoridagilarga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 463, 465-468, 471-473-moddalari talablariga amal qilib, sud hukm qildi: Xodjaev Abbasxon Axmadovich O'zbekiston Respublikasi JKning 112-moddasi 1-qismi, 229-moddasi bilan aybli deb topilsin* (A.Xodjayev ishi);

Ingliz va oʻzbek tillari yuridik diskursida nutqiy aktlar umumiy tahlilini amalga oshirish va taqqoslash maqsadida ikkala diskursdan ham quyidagi ishlar batafsil koʻrib chiqildi:

Ingliz yuridik diskursi: Tiffany Moss Trial, Ashley McArthur Trial, Nathaniel Rowland Trial, Hutton Inquiry, Theodore Ervin v. Cindy Young Trial.

Oʻzbek yuridik diskursi: Otabek Sattoriy ishi, Faxriddin Xushvaqtoʻv ishi, Guljahon Yoʻldosheva ishi, Qobul Doʻsov ishi, Ahmadjon Tursunboyev ishi.

Jadval 1

Ingliz va oʻzbek yuridik diskursida qoʻllaniluvchi nutqiy aktlar oʻrtasidagi farqlar

Nutqiy akt turlari	Ingliz yuridik diskursi Jami % (5745)	Oʻzbek yuridik diskursi Jami % (3312)
Reprezentativ	50,7 % (2916)	42,3 % (1402)
Direktiv	44 % (2533)	49 % (1618)
Deklarativ	0,6 % (36)	3,2 % (106)
Kommissiv	0,6 % (39)	1,5 % (50)
Ekspressiv	3,4 % (201)	4,1 % (136)

Jadvallardan koʻrinadiki, ingliz yuridik diskursi asosida oʻrganilgan materiallardagi qoʻllanilgan jami 5745 ta nutqiy aktlar ichida representativ

²⁵Hakimov M. Oʻzbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. D-ri ... diss. – Toshkent. 2011. – B.149.

(50,7%) hamda direktiv (44%) aktlar katta faollikka ega bo'lib, qolgan nutqiy akt turlari kamroq uchrashini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday o'zbek yuridik diskursida ham reprezentativ (42,3%) va direktiv (49%)lar salmoqli o'rin egallaydi. Ammo ingliz yuridik diskursida reprezentativlar, o'zbek yuridik diskursida esa direktivlar ustunlikka ega. Shunday bo'lsa-da, ikkala yuridik diskursda ham so'zlovchining psixologik holatini ifodalovchi ekspressiv (mos ravishda 3,4% va 4,1%) aktlar deklarativ va kommissivlarga nisbatan ko'proq ishlatiladi.

Xulosa qilish mumkinki, yuridik diskursda xabar va direktiv aktlar nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Sababi, sud jarayonida sudya va asosan advokat hamda prokurorlar o'z nutqi orqali xabar berish, to'g'irlash, xulosa qilish, tushuntirish, ayblash va boshqa shu kabi reprezentativ akt turlarini sodir etsalar, da'vat qilish, buyurish, ruhsat berish, ogohlantirish va iltimos qilish orqali direktiv aktlarni yuzaga keltiradilar. Sud tergov jarayonida esa ham reprezentativ ham direktivlar faol qo'llaniladi.

XULOSALAR

1. Diskurs – aniq bir xronotopli ekstralingvistik omillar, kontekstdagi matn va muloqot parametrlaridan iborat bo'lgan nutqiy jarayon sifatida qaraladi. Yuridik diskurs – barcha yuridik tuzilmalar, ular doirasida qo'llaniladigan ham og'zaki, ham yozma yuridik matnlar va ularning o'ziga xos maxsus professional terminlaridan tashkil topgan, shuningdek, og'zaki va yozma yuridik til va yuridik nutqning barcha qonun-qoidalariga amal qiluvchi institutsional diskurs turidir.

2. Turli xil qabilalar tomonidan qo'llanilgan qadimgi ingliz tili, lotin tili, skandinaviya va fransuz tilidan o'zlashgan termin, ibora, alliteratsiya va leksik dubletlarning ba'zilar hozirgi ingliz yuridik diskursida keng uchraydi. Shunday bo'lsa-da, Amerika va Angliya yuridik diskursida bu xil terminlarning qo'llanilishi va ma'no jihatida ayrim tavofutlar mavjud. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi hamda davlat va huquqning paydo bo'lishi bilan xarakterlanuvchi o'zbek yuridik tili qadimgi turkiy til, arab va rus tillari ta'sirida shakllandi. Mustaqillik sharofati bilan ko'plab o'zlashma termin va iboralar o'zbekchalashtirilishiga qaramay, hanuzgacha o'zbek yuridik diskursida ulardan qator namunalar uchrashi ma'lum bo'ldi.

3. Ingliz va o'zbek yuridik diskursi nominativ birliklarini aniqlash uchun barcha huquq tizimlari uchun asosiy tushuncha hisoblangan “jinoyat” freymi tahliliga asosan yaratildi. Mazkur freym strukturasi subfreym, slotlar hamda yordamchi konseptual apparatini tuzish asosida ingliz yuridik diskursi “crime” freymida *corpus delicti*, *element*, *actus reus* va *mens rea*, o'zbek yuridik diskursi “jinoyat” freym strukturasi esa *jinoyat tarkibi*, *jinoyat belgilari*, *obyekt*, *obyektiv tomon*, *subyektiv tomon* va *subyekt* asosiy konseptlar ekanligi kuzatildi. Ikkala diskursda ham *jinoyat nomlari (names of crime)* va *jinoyat turlari (types of crime)* subfreymilari hamda ularga mos ravishda qo'shimcha slotlar yaratildi. Shuningdek, *jinoyat nomlari (names of crime)* freymidagi har bitta jinoyat nomi jinoyat tarkibi va ijtimoiy xavflilik darajasi kabi belgilariga ko'ra alohida freym bo'lishi mumkin.

4. Sudya, prokuror, advokat, guvoh va sudlanuvchi nutqlari strukturasi xos belgilarga ko'ra ingliz va o'zbek yuridik diskursida sodda, murakkablashgan va qo'shma gaplar faol qo'llaniladi.

5. To'liq va to'liqsiz bo'lgan ikki sostavli gaplar hamda uyushgan bo'laklar qatnashgan sodda yoyiq gaplar, majhul nisbat shaklidagi bir sostavli shaxssiz gaplar, so'z-gaplar, undalma va kirish bo'laklar ishtirokidagi murakkablashgan gaplar va qo'shma gaplarning deyarli barcha turlari ikkala diskursda ham keng ifodalanishi kuzatildi.

6. Ingliz yuridik diskursida o'zbek yuridik diskursida faol bo'lgan sifat-dosh, ravishdosh o'ramli gaplar va uyushgan bo'laklar bilan murakkablashgan gaplar deyarli uchramaydi va bunday gaplar asosan qo'shma gap shaklida ifodalanadi.

7. Fe'l, sifat, son, olmosh, ravish, yuklama va ko'makchilar o'zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga yo'l ochuvchi morfologik vositalar, ritorik so'roq gaplar va achinish, afsuslanish, piching, istak-xohish ma'nolarini ifodalovchi sintaktik qoliplar esa sintaktik presuppozitsion signallar ekanligi aniqlandi.

8. Ingliz yuridik diskursida *singular demonstratives (birlikdagi ko'rsatish olmoshlari)*, *proper names (atoqli otlar)*, *singular personal & impersonal pronouns (kishilik & shaxsiz olmoshlar)* va *definite noun phrases (aniq otli birikmalar)* bilan mavjudlikni ko'rsatuvchi ekzistensial, *wh-questions*, *rhetorical questions*, *temporal clauses*, *comparison & contrasts*, *cleft sentences* kabi qoliplar yordamida anglashiluvchi struktural va *implicative verbs*, *iteratives*, *change of state verbs* hamda *verbs of judging* kabi vositalar bilan namoyon bo'luvchi leksik presuppozitsiyalar faolligi aniq bo'ldi.

9. Har ikkala diskursda ham morfologik sath birliklari sintaktik sath birliklariga nisbatan yashirin propozitsiyaga ishora qilishda faolligi kuzatildi.

10. Nutqiy vaziyat, pragmatik intensiya va nutq egasining psixologik-ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan nutqiy aktlar nazariyasi pragmatik tahlilning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Gapda ifodalangan ma'nodan tashqari turli xil qo'shimcha propozitsiyani aks ettiruvchi bunday nutqiy harakatlar ingliz va o'zbek yuridik diskursida lokutiv, propozitsional, illokutiv va perllokutiv bosqichlarda tahlil etildi.

11. Illokutiv aktlarda ifodalangan illokutiv kuchni to'g'ri anglanishi illokutiv kuchni ko'rsatuvchi vositalar va muvaffaqiyat shartlariga bog'liq. Yuridik diskurs rasmiy muloqotga asoslanganligi sababli ayrim holatlarda yosh, jins, ijtimoiy mavqei, rol munosabatlari va madaniy va ta'limiy daraja kabi pragmatik faktorlarni hisobga olgan holda illokutiv aktlarni bilvosita qo'llashga to'g'ri keladi. O'rganilayotgan diskurslarda bunday holat ayniqsa kinoyali birikmalarni qo'llashda yaqqol ko'zga tashlanadi.

12. Yuridik diskursda perllokutsiya (nutqiy ta'sir, natija) hodisasi juda muhim bo'lib, ishontirish yoki ko'ndirish, chalg'itish, fikrdan qaytarish va majburlash taktikalari mazkur diskursda perllokutiv ta'sir sifatida aks etadi.

13. Ingliz va o'zbek yuridik diskursida representativlar *asserting/confirming (tasdiq akti)*, *reporting/informing (xabar akti)*, *concluding (xulosa akti)*, *acknowledging/admitting (tan olish akti)*, *complaining (shikoyat akti)*, *guessing*

(*tahmin qilish akti*), *blaming* (*ayblash akti*), *explaining* (*tushuntirish akti*), *agreeing* (*rozi bo'lish akti*), *disagreeing* (*rad etish akti*), *correcting* (*to'g'irlash akti*) va *describing* (*tavsif akti*) tarzidagi, direktivlar *asking*, *ordering/commanding*, *requesting*, *advising*, *inviting*, *warning*, *permitting*, *challenging* hamda *demanding* tarzidagi, kommissivlar *promising* (*va'da*) va *vowing* (*qasamyod*) ko'rinishidagi, ekspressivlar *apologizing* (*kechirim so'rash*), *greeting* (*salomlashish*) hamda *thanking* (*minnatdorchilik bildirish*) ko'rinishidagi va deklarativlar *courtroom declaration* (*sud deklaratsiyasi*) va *wedding declaration* (*to'y marosimi deklaratsiyasi*) tarzidagi nutqiy aktlar orqali ifodalanishi aniqlandi.

14. Ingliz va o'zbek tillari yuridik diskursida reprezentativ va direktiv aktlar boshqa nutq aktlariga nisbatan qo'llanilish chastotasi yuqoriroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

ЖУМАНИЁЗОВА НУРИЯ АХМЕДОВНА

**ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЮРИДИЧЕСКОГО
ДИСКУРСА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание
и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ
ДИССЕРТАЦИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.4.PhD/Fil2101.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Палуанова Халифа Дарибаевна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Хайруллаев Хуршид Зайниевич
доктор филологических наук, профессор

Кучимов Шухрат Норкизилович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «25» июля 2023 года в 9.30 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица ул. Кичик халка йули, 21а. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована под № 14). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик халка йули, 21а. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92.)

Автореферат диссертации разослан «10» июля 2023 г.
(реестр протокола рассылки № 14 от «10» июля 2023 года).



Г.Х. Бакиева
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор филол. наук, профессор

Х.Б. Самигова
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор филол. наук, доцент

Ж.А. Якубов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании серьезное внимание уделяется всестороннему изучению языковых единиц, их формированию, концептуальному анализу значения и содержания, языковой реализации. В частности, изучение языка в связи с человеческим фактором и отношениями и речевой ситуацией привело к возникновению коммуникативно-прагматического анализа и развитию прагмалингвистического подхода в языкознании.

На сегодняшний день в рамках этого подхода значительное место занимают научные исследования, направленные на изучение речевой деятельности и её успешного протекания, речевого этикета или социальной специфики речи, слов и средств выражения оценочных отношений, коммуникативной цели и её реализации в речи, теории дейксиса, теории дискурса, теории речевых актов, контекстно-зависимого аспекта речи и ряда других подобных вопросов.

Так как считается, что прагматика и теория дискурса зависят от контекста, в мире они рассматриваются как взаимосвязанные с ним области исследований. Эти дисциплины в основном изучают контекст, текст и функцию, а также, с учетом важности смысла слов, используемых в процессе общения, обладают такими общими аспектами, как способность интерлокутеров передавать больше информации, чем заложено в словах, используемых ими в речи. Итак, очевидно, что прагмалингвистика – это наука, изучающая то, как контекст зависит от содержания устного или письменного дискурса, и то, как общие интересы и цели говорящих формируют этот дискурс.

В Узбекистане распространён анализ определённых междисциплинарных лингвистических и экстралингвистических аспектов дискурса, при этом юридический дискурс, будучи одним из видов институционального дискурса, тоже постепенно становится объектом многих исследовательских работ. А это приводит к тому, что юрислингвистику, которая рассматривается в качестве новейшей области языкознания, начинают изучать еще более углубленно. Современные требования, которые основаны на потребностях в сфере «реализации в стране ряда конкретных мер по совершенствованию системы юридического образования, предусматривающих внедрение в учебно-педагогический процесс инновационно-передовых и международных образовательных стандартов, повышение кадрового потенциала, а также укрепление материально-технической базы образовательных учреждений»¹, заключаются в преподавании студентам структурных, номинативных, когнитивных и прагмалингвистических аспектов юридического дискурса иностранного языка в ходе изучения ими различных системных языков.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева УП-5987 от 29.04.2020 «О дополнительных мерах по кардинальному совершенствованию юридического образования и науки в Республике Узбекистан» // Национальная база данных законодательства, 30.04.2020 г., № 06/20/5987/0521.

Данная диссертация в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» и УП №-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 662 от 28 октября 2021 года «Об утверждении Положения о порядке проведения лингвистической экспертизы проектов нормативных правовых документов», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к этой области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. До сегодняшнего дня проблема теории дискурса в масштабе мировой лингвистики обсуждалась в работах таких ученых, как З.Харрис, М.Стаббс, Т. ван Дейк, Н.Фэрклоу, Г.Браун и Г.Юл, Ю.С.Кубрякова, Н.Д.Арутюнова, А.М.Каплуненко, М.Л.Макаров и В.И.Карасик² и т.д., а такие ученые, как Дж.Остин, Дж.Сёрль, Г.Лич, С.Левинсон, З.Вендлер, Э.Кинан, Л.Карттунен, П.Строусон, Ч.Филмор, Дж.Лакофф, Р.Столнейкер, Ф.Кифер, Г.Почепцов, Е.В.Падучева, В.Демьянков³ и другие внесли большой вклад в исследование

²Harris Z. Discourse analysis // Language. –1952. – №1; Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. – Chicago, IL: The University of Chicago Press, 1983; Дейк, Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация [Текст]: сборник работ / Т.А. ван Дейк; составление В.В. Петрова; пер. с англ. яз. под ред. В.И. Герасимова; вступ. ст. Ю.Н. Караулова, В.В. Петрова. – Москва: Прогресс, 1989; Fairclough M. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992; Brown G., & Yule G. Discourse Analysis. –Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике / Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты: Сб. обзоров / РАН ИНИОН (Серия: Теория и история языкознания). – М., 2000; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990; Каплуненко А.М. Курс дискурса: под флагом Фуко//Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. – 2013. –№4; Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

³Austin J.L. How to do things with words. –Oxford: Oxford Univer. Press, 1962; 2nd ed., 1973; Searle J.R. Expression and Meaning. Studies in the Theory of Speech Acts. – USA: Cambridge University Press, 1979; Leech G. Principles of Pragmatics. –London; New York, 1983; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Вендлер З. Иллокутивное самоубийство. Новое в зарубежной лингвистике / сост. Н.Д. Арутюнова и Е.В. Падучева. – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика; Keenan E.L. Two kinds of presupposition in natural language. In Fillmore, C. & Langendoen D. (eds), Studies in linguistic semantics. –New York: Holt, Rinehart & Winston, 1971; Karttunen, L. Presuppositional phenomena. Mimeo. Department of Linguistics, University of Texas, Austin. In Levinson, S. C. (ed.), Pragmatics (pp. 181-184). –Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Strawson P.F. Introduction to logical theory. –L., 1952; Fillmore Ch. Types of lexical information. In: F. Kiefer (ed.)//Studies in syntax and semantics. – Dordrech-Holland, 1969; Lakoff G. Linguistics and natural logic//Studies in generative/ semantics. – 1970. – №1; Stalnaker R.S. Pragmatics. – Dordrecht-Holland: D. Reidel Publishing Company, 1972; Kiefer F. Zur Rolle der Pragmatic un der linguistischen Beschreibung. — / “Die Neueren Sprachen”. Heft 3/4, Juli 1978, Verlag Moritz Diesterweg. Frankfurt am Main; Почепцов Г.Г. Основы прагматического описания предложения. – Киев, 1986; Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике. Семиотика и информатика. – М.,1977.

пресуппозиции, теории речевых актов и их классификации, иллюкутивных речевых актов и косвенных речевых актов, которые считаются прагмалингвистическими явлениями. В то же время в узбекской лингвистике в области развития данного направления следует выделить работы Ш.Сафарова, М.Хакимова, А.Нурмонова, У.Рахимова, З.Бурханова, Д.Лутфуллаевой, М.Хайназаровой и М.Курбановой⁴.

При этом юридический дискурс и его прагмалингвистические особенности в основном всесторонне изучались в русской лингвистике такими учеными, как В.А.Мальцева, Л.Ю.Попова, В.В.Зайцева, М.Н.Федулова, А.В.Баламакова, М.Ф.Резуненко, И.В.Палашевская, Ю.В.Шевченко, С.Н.Слепухин, Г.В.Кусов, Е.Ш.Никифорова, М.Е.Микаелян и К.В.Данилов⁵. Однако в нашем языкознании с точки зрения теории речевых актов и других прагмалингвистических явлений этот дискурс не анализировался.

– Вып.8; Демянков В. Прагматические основы интерпретации высказывания. Известие АНСССР. Серия лит. и яз., 1981. – №4.

⁴ Safarov Sh. Pragmalingvistika//Монография. –Ташкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008; Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap (Пресуппозиция и предложение)//O‘zbek tili va adabiyoti. –Ташкент, 1986. –№6; Nurmonov A. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi (Пресуппозиция послеслоговых конструкций)//O‘zbek tili va adabiyoti. – Ташкент, 1986. – № 6; Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi (Пресуппозиция частиц в узбекском языке) Автореф.дисс.кан.фил.наук.– Самарканд, 1994; Hakimov M. Tagma‘no va tagbilim xususida ba‘zi mulohazalar (Некоторые рассуждения на тему предмысла и предзнания) //O‘zbek tili va adabiyoti. – Ташкент, 2001. – № 1; Burhonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt) (Послеслоги в узбекском языке и прагматика падежей, выполняющих ту же функцию (пресуппозиционный аспект)). Автореф.дисс.кан.фил.наук. – Ташкент, 2008; Lutfullaeva D. O‘rniga ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi (Пресуппозиция конструкций с послеслогом «вместо»)//O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1996. –№5; Haynazarova M. So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi (Несоответствие формы и содержания в вопросительных предложениях). Автореф.дисс.кан.фил.наук. –Ташкент, 1999; Qurbonova M. O‘zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti (Прагмалингвистические аспекты речи узбекских детей). –Toshkent, 2018.

